ISSN: 3060-4613

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI VAZIRLIGI

O'zbekiston Milliy Pedagogika Universiteti



13.00.00 Pedagogika fanlari
13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
13.00.03 Maxsus pedagogika
13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohalari va bosqichlari bo'yicha)
13.00.07 Ta'limda menejment
13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
07.00.00 Tarix fanlari
19.00.00 Psixologiya fanlari
01.00.00 Fizika-matematika fanlari
02.00.00 Kimyo fanlari
03.00.00 Biologiya fanlari
09.00.00 Falsafa fanlari
10.00.00 Filologiya fanlari
11.00.00 Geografiya fanlari

№12
2025

# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal

# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Elektron nashr. 394 sahifa,
2-dekabr, 2025-yil.

**BOSH MUHARRIR:**
**Karimova E'zoza Gapirjanovna –** O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

**BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:**
**Ibragimova Gulsanam Ne'matovna** – Pedagogika fanlari doktori, professor

***TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI***
***Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik***
***Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik***
***Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor***
***Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor***
***Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor***
***Shermuhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor***
***Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor***
***Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor***
***Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor***
***Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor***
***Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor***
***Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor***
***Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)***
***Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)***
***Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)***
***Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)***
***Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)***
***Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)***
*Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent*
***Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor***
***Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor***
***Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor***
***G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)***
***Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent***
***Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent***
***Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent***
***Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent***
***Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti***
***Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor***
***Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)***
***Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent***
***Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),dotsent***
***Doniyorov S. M. –"Yangi O'zbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari nomzodi (PhD)***
***Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent***
***Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori***
***Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent***
***Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari***
***Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)***

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ
Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

**EDITOR-IN-CHIEF:**
**Karimova E'zoza Gapirzhanovna** – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

**DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:**
**Ibragimova Gulsanam Ne'matovna** – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

***EDITORIAL BOARD MEMBERS:***
***Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician***
***Shoumarov G'. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician***
*Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor*
***Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor***
***Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor***
***Shermuhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor***
***Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor***
***Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor***
***Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor***
***Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor***
***Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor***
***Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor***
***Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)***
***Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)***
***Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)***
***Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)***
***Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)***
***Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)***
Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
***Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor***
***Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor***
***Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor***
***Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)***
***Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor***
***Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor***
***Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor***
***Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor***
***Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service***
***Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor***
***Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)***
***Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor***
***Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor***
***Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the Editorial Board of the newspapers "Yangi Uzbekiston" and "Pravda Vostoka", Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Candidate of Philological Sciences (PhD)***
***Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor***
***Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics***
***Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor***
***Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region***
***Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences***

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:
Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:
• Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
• Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)
Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):
• Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
• Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **№C-5669363** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

# MUNDARIJA

Yangi O'zbekiston sharoitida ayollar ijtimoiy faolligini oshirishda psixologik motivatsiya va o'z-o'zini rivojlantirish strategiyalari ....26
Xuseynova Abira Amanovna

Pragmalinguodidactic Principles in Teaching English for Philologist Students and their Application in Intercultural Communication....31
Arzieva Bibi-Sanem Aynazarovna

Metakognitiv ko'nikmalarni rivojlantirishga qaratilgan biologiya o'quv materiallarini loyihalash, joriy etish va samaradorligini baholash....35
Abdurasulova Gulrux Habibullayevna

Oligofreniya holatida neyropsixologik tashxislar qo'llanilishining umumiy masalalari ....40
Akramov Dostonbek Ikromjon o'g'li, Xojialiyeva Sarvinoz Elyorjon qizi

Oliy ta'lim muassasalari talabalarida kreativ kompetensiyani rivojlantirish pedagogik muammo sifatida ...44
Asatova Dildora Aslamovna

Ingliz tili o'qish ko'nikmalarini takomillashtirishda autentik manbalarning roli....49
Bekmuratova Nargiza Arislanbayevna

Insultdan keyingi nutqni tiklashda logopedik reabilitatsiya va nevrologik muolajalar integratsiyasi ....52
Boltaboyeva Xurshida Sharofiddinovna

The Concept of Symbols in Linguoculturology ....56
Hamraqulova Gulandom Sodiq qizi

Buyuk ipak yo'li xalqlari o'rtasidagi pedagogik va madaniy aloqalarning vujudga kelishi....59
Mirxalilova Nargiza Akbarovna

Bo'lajak tarbiyachilarni bolalarni nutqini o'stirishga bo'lgan kasbiy-pedagogik tayyorgarligini o'stirish ....63
Mitaliboyeva Dildora

Koxlear implantli bolalarning eshituv–nutqiy faolligini oshirishda differensial yondashuv asosida korreksion-pedagogik ish ....66
Nartayeva Shahnoza Yulchibayevna

Fasilitatsion yondashuv asosida kichik maktabgacha yoshdagi bolalarda adaptiv ko'nikmalarni rivojlantirishning psixologik-pedagogik mexanizmlari....71
Normatova Nilufar Komilovna

Boshlang'ich sinflarda disgrafiyasi bo'lgan o'quvchilarda yozish kompetensiyalarini shakllantirishning ilmiy-nazariy asoslari (XIX–XXI asrlarda)....76
Qaxxorova Saidaxon, Mamarajabova Zulfiya

Raqamli texnologiyalar va onlayn platformalar orqali olimpiya ta'limini rivojlantirish: yoshlar orasida axloqiy va jismoniy madaniyatni oshirish ....80
Qodirov Jurabek Mamatsimonovich

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida sun'iy intellekt bilim va savodxonligini rivojlantiradigan innovatsion jismoniy-interaktiv o'yinlar: pedagogik model....83
Quvonova Nodirabegim Shavkat qizi

"Sab'ai sayyor" asarida qo'llangan onomastik birliklar haqida mulohazalar ....87
Gadayev Oybek Yaxshiboyevich, Ravshanova Sharbatoy Rahmatilla qizi

Ijtimoiy tarmoq shifokorlarining masofaviy konsultatsiyalari shaxs psixikasi va salomatligiga ta'siri....91
Askarova Nargiza Abdivaliyevna, Ravshanova Zarnigor Daminovna

Talabalar ilmiy dunyoqarashini rivojlantirishda innovatsion ta'lim texnologiyalari va interfaol metodlardan foydalanish....95
Satvoldiyev Faxriddin Akbarali o'g'li

Innovatsion ta'lim texnologiyalari orqali pedagoglarning kreativligini rivojlantirish ....99
Saydullayeva Gulasal Umidjon qizi

Maktabgacha yoshdagi bolalar motorikasini rivojlantirishning standart modeli ....102
Sirojiddinova Xamidaxon Xasanboy qizi

Bo'lajak o'qituvchilarning shaxslararo munosabat kompetensiyasini rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari ....106
Turg'unova Gulnoza Muhammadjonovna, Xodjiyeva Mahliyo

Shaxsdagi mehnat motivatsiyasi samaradorligini ta'minlashga xizmat qiluvchi korrelyatsion bog'liqliklar tahlili ....109
Xusanov Samariddin Maxmadaminovich

Auditoriyadan tashqari musiqiy mashg'ulotlarni art-terapiya yordamida tashkil etish asoslari ....112
Yarashev Jo'rabek To'rayevich

Формирование творческого мышления школьников на уроках музыки ....117
Габдульманова Ильнура Минисламовна

Теоретико-методологические основы коллаборативного обучения, кооперативных подходов и интерактивных педагогических методов ....119
Жураева Мафтуна Бахтиёр кизи

Педагогическое колесо как инструмент формирования цифровой компетентности будущих педагогов дошкольного образования ....124
Уразова М. Б., Усманова У. Б.

Особенности гражданского воспитания обучающихся в системе "школа–махалля" в Узбекистане ..130
Хайдаров Шавкат Шамсиддин угли

Педагогические условия формирования языковой грамотности у учащихся с тяжелыми нарушениями речи ....135
Юсупова Зулайхо Бахром кизи

Valeologik tarbiyada o'yin texnologiyalarining ahamiyati ....139
Berkinova Charos Islomovna

O'quvchilarda faol fuqarolik kompetensiyasi tushunchasi, mazmuni va shakllanishi ....142
Buvorayeva Gulruh Shoikrom qizi

Boshlang'ich ta'limda STEAM yondashuvi asosida o'qitishning didaktik imkoniyatlari ....145
Cho'tboyeva Munisxon Eshpo'lat qizi

Tabiatga muhabbat: maktabgacha ta'limda milliy qadriyatlar va o'yinlar orqali ekologik tarbiya ....150
Ergasheva Umrinisso Komilovna

Zamonaviy ta'lim – talabalar ijtimoiy intellektini shakllantirsh omilidir ....153
Ermatova Gulnoz Pirimovna

O'zbekistonning eng yangi tarixi fanini o'qitishda pedagogik texnologiyaning o'rni ....156
Gazibekova Feruza Hakimovna

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining raqamli texnologiyalar muhitida tanqidiy va mustaqil fikrlashini rivojlantirish metodikasi ....159
Haydarova Feruza Haydar qizi

Talabalarda ma'naviy-axloqiy fazilatlar va sifatlarni shakllantirish mexanizmi ....162
Jumanazarova Dilnoza Umurzaqovna

Maktabgacha yoshdagi bolalarning kasbga bo'lgan qiziqishlarini shakllantirishda interfaol metodlarni qo'llash texnologiyasi ....165
Jumayeva Malika Aliyevna

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarda kasbiy-nutq madaniyatini rivojlantirish ....168
Lutfetdinova Ra'no Xusnetdinovna

Maktabgacha yoshdagi bolalarda matematik rivojlanishga zamonaviy yondashuvlar va jahon tajribalari ..172
Masharipova Barno Erkin qizi, Adilbayeva Dilnoza Adilbay qizi

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida til o'yinlari texnologiyalarining nazariy asoslari ....175
Masharipova Dilfuza Muxammatjon qizi

Maktabgacha ta'lim tarbiyachisi pedagogik faoliyatining o'ziga xosligi ....178
Muhammadiyeva Feruza Turakulovna

Boshlang'ich sinf o'quvchilarini og'zaki va yozma nutqini rivojlantirishda aksiologik yondashuvdan foydalanish metodikasi ....181
Muhiddinova Munira Xayrullayevna

Boshlang'ich ta'lim jarayonida matematika fanini o'qitishda raqamli transformatsiya vositalaridan foydalanishning metodik paradigmasi ....184
Narzullayeva Sevara Omonovna

O'qituvchining muloqot madaniyatini shakllantirishning pedagogik-psixologik xususiyatlari ....187
Nizamova Nodira Paxritdinovna

Integrativ yondashuv asosida o'quvchilarning nutqiy kompetentligini rivojlantirishning mazmuniy izohlanishi ....191
Oysha Qurbonova, Nodira Abduraimova

Boshlang'ich ta'limda Finlandiya tajribasi ....195
Nodira Sherboyeva

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

Kutubxonachi kutubxona-axborot xizmati jarayonining yetakchi ishtirokchisi sifatida ......198
O'ktam Nosirov

Pedagogik ta'lim transformatsiyasida talabalarning tadqiqotchilik kompetensiyalarini rivojlantirish texnologiyasi ......204
Rustamova Shoxista Omonjonovna

Globallashuv sharoitida axborot-psixologik xavfsizlikni shakllantirish masalalari ......208
Raxmatjonov Shoxjahon Dilshodbek o'g'li

Talabalarga ingliz tilini o'qitishning zamonaviy innovatsion texnologiyalari ......212
Sa'dullayeva Rushana

Boshlang'ich sinf matematika darslarida o'quvchilarning mantiqiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirish ......215
Saidova Dilbar Erkinovna

Pedagog xodimlarda tolerantlik namoyon bo'lishining determinantlari ......218
Sattorova Maxliyo Dilmurod qizi

Kreativ metodlar orqali maktabgacha yoshdagi bolalarda kreativ tafakkur va fikrlashni rivojlantirish ......223
Sultonboyeva Baxriniso Ilhomjon qizi

Artpedagogika texnologiyalaridan foydalanib maktabgacha yoshdagi bolalarda dialogik nutqni rivojlantirish metodikasi ......226
Xolmatova Fotima Baxtiyor qizi

Boshlang'ich ta'limda yashil kompetensiyalarni shakllantirish yo'nalishlari ......229
Yaqubova Shoira Tog'aymuratovna

Emotsional intelektni rivojlantirishning nazariy asoslari ......233
Yarmatov Raxmboy Baxramovich

Boshlang'ich ta'limda o'quv veb-saytlari orqali til kompetentligini rivojantirish ......239
Zokirova Sohiba Muxtoraliyevna, Muxammadjonova Diyorabonu Muzaffarjon qizi

Языковые изменения в русском языке XXI века: исследование новых слов, сленга, интернет-коммуникации, влияния англицизмов и глобализации на современный русский язык ......242
Марупова Дилфуза Давроновна

Oliy ta'limda talabalarning ilmiy-tadqiqot faoliyatining maqsad va vazifalari ......247
F. R. Xosilova

Boshlang'ich ta'lim texnologiya darslarida o'quvchilarni tabiiy materiallar bilan ishlashga o'rgatish ......251
Kambarov Nodirjon Sattarovich, Nasirjanova Feruzaxon Alixon qizi

Boshlang'ich ta'limda STEAM yondashuvining qo'llanilishi va uning samaradorligi ......256
Abdulazizova Yulduz Abdujabbor qizi

Tabiiy fanlarni o'qitishda STEAM yondashuvi asosida kreativlikni rivojlantirish metodikasi ......259
Abdullayeva Dilrabo Fayzulla qizi

Umumta'lim maktablarida o'quvchilarda shaxs ma'naviy qiyofasini shakllantirishning zamonaviy pedagogik texnologiyalari ......262
Aliyeva Zuxra Tursunboyevna

Yosh avlodni madaniy-tarixiy yondashuv asosida tarbiyalashda madaniy-ma'rifiy muassasalarning o'rni ......265
Aripov Shokirjon Olimovich

Ta'limda yangi texnologiya: 4K modeli va uni amalga oshirish yo'llari ......268
Avliyoqulova Nasiba Choriyevna

Badiiy-tarixiy materiallarni ta'lim jarayoniga integratsiyalashning metodologik asoslari ......272
Baratov Baxtiyorjon Qodirovich

Bolaning maktabgacha ta'lim tashkilotiga moslashishida o'yinning roli ......275
Barno Masharipova Erkin qizi, Zuhrobova Mahliyo Abdulatif qizi

Boshlang'ich sinf o'qish savodxonligi darslarida integrativ yondoshuvdan foydalanish texnologiyasi ......278
Ernazarova Laylo Abdusaitovna, Saidahmadova Gulrux Farrux qizi

Bo'lajak tarbiyachilarda metarefleksiv fikrlashni rivojlantirishning psixologik-pedagogik asoslari ......284
Ismailova Nilufar Isroildjanovna

Semantic and Cross-Cultural Features of Food-Based Idioms in Karakalpak and English Languages ......289
Jiemuratova Gulistan Koshkinbaevna

Filolog talabalarida mustaqil fikrlash va qaror qabul qilishni rivojlantirishda metakognitiv yondashuvlarning didaktik mexanizmlari ......292
Jo'rayeva Dilnoza Ro'zimat qizi

Rivojlantiruvchi sohalar kompetensiyalariga integratsion yondashuv asosida maktabgacha yoshdagi bolalarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalash texnologiyasini rivojlantirish ......296
Jo'rayeva Zilola Sayfiddin qizi

Psixologlar kasbiy komponentlarini rivojlantirishda matematik usullardan foydalanishning o'ziga xos xususiyatlari....302
Kuziyeva Dilnura Dilmurotovna

O'zbekiston metodik maktabida sotsiolingvistik kompetensiyani shakllantirish bo'yicha olib borilgan ilmiy tadqiqotlar tahlili....306
Madaminova Gulzira Gulamkadirovna

Maxsus pedagogika fanlarini o'qitishning nazariy-metodik asoslari....313
Maqsudova Nodira Alijonovna

Maktabgacha yoshdagi bolalarda metakognitiv ko'nikmalarni rivojlantirishda ertakterapiya texnologiyalaridan foydalanish metodikasi....317
Muxiddinova Dilfuza Sherdor qizi

Nutq madaniyatini shakllantirishda o'qituvchi nutqining roli....320
N. Q. Olimova

Boshlang'ich ta'lim jarayonida matematika fanini o'qitishda raqamli transformatsiya vositalaridan foydalanishning metodik paradigmasi....323
Narzullayeva Sevara Omonovna

O'quvchilarda ekologik madaniyatni shakllantirish metodikasi....326
Normirzayeva Maftunaxon Ilyosjon qizi

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida tadqiqot faoliyatini rivojlantirishda intensiv ta'lim texnologiyalarining metodik asoslari....329
Olloqulova Farzona Umedillayevna

Maktabgacha ta'lim yoshidagi giperaktiv bolalar bilan ishlashda pedagogik kompetentligini oshirish metodikasi....332
Raimqulova Sojida Abdusaid qizi

Talabalarning tadqiqotchilik kompetensiyalarini shakllantirishning nazariy asoslari....335
Rustamova Shoxista Omonjonovna

Inklyuziv ta'limni tashkil etishning xorijiy pedagogik amaliyotdagi modellari....339
Sultonova Zarina Uchqun qizi

Xalq pedagogikasida ertaklarning tarbiyaviy va ma'naviy-ma'rifiy ahamiyati: ma'naviy begonalashuvga qarshi tarbiyaviy omil sifatida....343
To'xtasinova Farida Davlatali qizi

B1 darajadagi talabalar uchun xorijiy tilni o'qitishda audiovizual texnologiyalar yordamida ta'lim samaradorligini oshirishning metodik asoslari....347
Toshpulatova Shaxsanam Xolmurodovna

Kontekstli ta'lim va uning boshlang'ich ta'lim matematikasidagi ahamiyati haqida....350
Umarova Nigora Alisherovna

Oiladagi psixologik muhitning o'spirinlarda to'liqsizlik kompleksi shakllanishiga ta'siri....353
Xalmuratova Dilorom Abdikarimovna

Ta'limda faktcheking: misinformatsiya va dizinformatsiyaga qarshi kurashishning pedagogik asoslari....356
Xidirova Maftuna Ilhom qizi

Maktab o'quvchilarini falsafiy va dunyoqarashga tayyorlash omillari....362
Xo'shboqova Farida Komiljon qizi

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida nutq faoliyatini rivojlantirishning lingokognitiv asoslari....370
Xusanova Gulruxsor To'lqin qizi, Aliyeva Muhlisa Baxodir qizi

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining nutqiy kompetensiyasini oshirish....374
Zokirova Sohibaxon Muxtaraliyevna, Erkinova Nazokatxon Anvarjon qizi

Эффективность занятий кроссфитом в повышении уровня общей физической подготовленности слушателей института повышения квалификации МВД Республики Узбекистан....377
Албеков Шокир Адилбекович

Роль торговых и кочевых маршрутов в формировании лингвокультурных заимствований между Хорезмом и Южной Сибирью....381
Сатымова Светлана Сатымовна

Использование искусственного интеллекта в обучении русскому языку как иностранному: проблемы и решения....385
Ташева Дилором Салимовна

Проблемы использования коммуникативного метода в преподавании русского языка студентам....389
Тоджибоева Наргиза Джумабоевна

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

# BO'LAJAK TARBIYACHILARDA METAREFLEKSIV FIKRLASHNI RIVOJLANTIRISHNING PSIXOLOGIK-PEDAGOGIK ASOSLARI

Ismailova Nilufar Isroildjanovna
Namangan davlat pedagogika instituti,
Maktabgacha ta'lim kafedrasi dotsenti

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada bo'lajak tarbiyachilarda metarefleksiv fikrlashni rivojlantirishning psixologik va pedagogik asoslari ilmiy nuqtayi nazardan yoritiladi. Metarefleksiya va refleksiya tushunchalarining mazmuni, ularning maktabgacha ta'lim mutaxassislarini tayyorlash jarayonidagi o'rni hamda metakognitiv jarayonlar va kasbiy o'zini-o'zi rivojlantirish kompetensiyalari bilan o'zaro bog'liqligi tahlil etiladi. Tadqiqotda talabalarda metarefleksiv fikrlashni shakllantirishga xizmat qiluvchi ta'lim muhiti, trening texnologiyalari, diagnostik usullar va amaliy mexanizmlar ilmiy asosda yoritiladi. Olingan natijalar metarefleksiv fikrlash bo'lajak tarbiyachilarning kasbiy o'sishi va refleksiv madaniyatini rivojlantirishda muhim omil ekanini ko'rsatadi.

**Kalit so'zlar:** metarefleksiya, refleksiya, metakognitsiya, kasbiy kompetensiya, bo'lajak tarbiyachi, maktabgacha ta'lim.

**Abstract:** This article scientifically examines the psychological and pedagogical foundations for developing metareflexive thinking in future preschool educators. The concepts of metareflexion and reflection, their significance in the professional preparation of early childhood education specialists, and their interrelation with metacognitive processes and self-development competencies are analyzed. The study substantiates pedagogical conditions, training technologies, diagnostic methods, and educational environments that contribute to the development of metareflexive thinking among students. The findings demonstrate that metareflexive thinking is a crucial factor in the professional growth and reflective culture of future preschool educators.

**Key words:** metareflexion, reflection, metacognition, professional competence, future educator, early childhood education.

**Аннотация:** В статье научно обоснованы психологические и педагогические основы развития метарефлексивного мышления у будущих воспитателей. Раскрывается сущность понятий "метарефлексия" и "рефлексия", анализируется их роль в профессиональной подготовке специалистов дошкольного образования, а также их взаимосвязь с метакогнитивными процессами и компетенциями профессионального саморазвития. В исследовании обоснованы педагогические условия, образовательная среда, тренинговые технологии и диагностические методы, способствующие формированию метарефлексивного мышления у студентов. Полученные результаты подтверждают, что метарефлексия является ключевым фактором профессионального роста и развития рефлексивной культуры будущих воспитателей.

**Ключевые слова:** метарефлексия, рефлексия, метакогниция, профессиональная компетентность, будущий воспитатель, дошкольное образование.

## KIRISH

Zamonaviy pedagog maktabgacha yoshdagi bolalar bilan ta'limiy va tarbiyaviy jarayonlarni rejalashtirish, amalga oshirish va ularning natijalarini kuzatish uchun zarur bo'lgan kasbiy kompetensiyalarga ega bo'lishi lozim. Bugungi pedagog, eng avvalo, o'zgarishlarga tayyorlik, o'zini doimiy ravishda takomillashtirishga intilish, moslashuvchanlik, bilimlarni muntazam yangilab borish, shaxsiy va kasbiy rivojlanishga bo'lgan ehtiyoj, shuningdek noodatiy vazifalarni ijodiy yondashuv asosida hal eta olish kabi sifatlarni namoyon qilishi muhimdir.

Maktabgacha ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan sifat o'zgarishlari pedagoglarning yangi talablarni joriy etishga tayyorligi masalasini dolzarblashtirdi. Bunday sharoitda pedagogik refleksiya – tarbiyachining pedagogik vaziyatni tahlil qila olishi, o'z mehnati natijalarini baholashi, ularni oldindan belgilangan maqsad bilan solishtirishi va bolaning pozitsiyasini tushunib, unga mos ravishda ta'limiy yechimlar ishlab chiqishi – alohida ahamiyat kasb etadi.

Maktabgacha ta'lim va tarbiyaning davlat ta'lim standarti maktabgacha ta'lim jarayoniga kompetensiyaviy yondashuvni joriy etishni taqozo etadi. Bu esa ta'lim jarayonini tashkil etishda refleksiv-faoliyat yondashuvini qo'llashni hamda pedagoglarda refleksiv ko'nikmalarni shakllantirishni zarur qiladi.

So'nggi o'n yilliklarda refleksiya fenomeni va uning tarkibiy komponentlari ilmiy-pedagogik adabiyotlarda keng yoritilgan. Ushbu yo'nalishda E.V. Bondarevskaya, S.V. Kulnevich, Yu.N. Kulyutkin, A.K. Markova, L.S. Podymova, G.S. Suxobskaya, V.A. Slastenin, B.G. Ushakov va boshqa tadqiqotchilar tomonidan muhim tadqiqotlar olib borilgan.

Biroq amaliyotda – ayniqsa maktabgacha ta'lim tashkilotlarida faoliyat yuritayotgan pedagoglarda – refleksiv va metarefleksiv ko'nikmalarni rivojlantirishning samarali metodlari yetarlicha ishlab chiqilmagani kuzatiladi. Shu bois refleksiya masalalariga bag'ishlangan tadqiqotlar izchil amalga oshirilmoqda.

Refleksiv texnologiyalarning ta'lim jarayonida qo'llanilishi Proxorova V.A., Belova E.V., Rubina N.S. tomonidan o'rganilgan; refleksiv ko'nikmalarni shakllantirish masalalarini Usheva T.F., Vaxrusheva O.S., Shabalina S.M. tadqiq etgan. Pedagogik muloqotda refleksiya masalalariga oid ilmiy nashrlar esa Yu.N. Kulyutkin, G.S. Suxobskaya, V.A. Slastenin, L.S. Podymova, E.V. Bondarevskaya, S.V. Kulnevich kabi olimlar tomonidan yaratilgan.

Refleksiyaning umumiy psixologik mexanizmlari – to'xtalib mulohaza yuritish, e'tibor jamlash, o'zini kuzatish, obyektlashtirish, o'ziga qayta murojaat qilish kabi jarayonlar – N.G. Alekseyev, I.N. Semenov, S.Yu. Stepanov, A.A. Tyukov va boshqa olimlar tomonidan chuqur o'rganilgan.

Refleksiyani pedagogning professional faoliyati turi sifatida ko'rib chiqqanda, uning strukturaviy va ketma-ket jarayon ekanini ta'kidlash lozim. Refleksiv faoliyatning tuzilmasi quyidagi bosqichlardan iborat:

1. Transpozitsion bosqich – pedagog o'zini bevosita professional faoliyatni amalga oshiruvchi sub'yekt pozitsiyasidan faoliyatni tahlil qiluvchi sub'yekt pozitsiyasiga o'tkazadi.
2. Reproduktiv bosqich – pedagog bajarilgan harakatlar ketma-ketligini va ularni amalga oshirish usullarini qayta tiklaydi.
3. Analitik-baholash bosqichi – pedagog o'z faoliyatini tahlil qiladi, psixofiziologik holatini baholaydi, atrofdagilarning emosional reaksiyalarini kuzatadi va pedagogik faoliyat natijalarini baholaydi.
4. Natijaviy bosqich – refleksiya natijalari, faoliyat usullari va emosional holat qayd etiladi.
5. Prognozlash bosqichi – refleksiv tahlil asosida kelajakdagi faoliyat rejalashtiriladi.

Refleksiyani pedagogning professional faoliyati tarkibiy qismi sifatida o'rganish maxsus pedagogik ko'nikmalar – refleksiv ko'nikmalar – mavjudligini ko'rsatadi.

Psixologik va didaktik adabiyotlarda "ko'nikma" tushunchasi keng ma'noda quyidagicha izohlanadi:

- Ko'nikma – bu "amaliyotga tatbiq etilgan bilim", ya'ni bilimlarning o'quv faoliyatida qo'llanish sifatidir;
- Ko'nikma – maqsadga yo'naltirilgan va samarali faoliyatga qodirlikdir.

Ko'nikma mohiyatini aniqlab, refleksiyani inson ongining fenomeni sifatida tushungan holda quyidagi refleksiv ko'nikmalar ajratiladi:

1. Real, aniq maqsadlar qo'yish va o'z harakatlari natijalarini baholash.
2. Faoliyatni oldindan rejalashtirish, nazorat qilish va o'zini baholash.
3. Sharoitlar o'zgarishiga mos ravishda harakatlarni qayta yo'naltirish.
4. Bajarilgan ishni anglash va faoliyatga tanqidiy-ijodiy munosabat bildirish.
5. O'z faoliyati tajribasini umumlashtirish hamda hamkasblar tajribasidan foydalanish.
6. O'z fikrlari, harakatlari va emosional holatini tahlil qilish; atrofdagilarning fikrini anglash.
7. Kasbiy vazifalarni bajarishda yuqori pedagogik tayyorgarlikni namoyon qilish.
8. Empatiya, kommunikativlik va tashkiliy qobiliyatlarni namoyon etish.
9. Vaziyatni tahlil qilish va boshqarish, jamoada ijobiy psixologik muhitni saqlash.

B.G. Ushakov pedagogik refleksiyani quyidagicha ta'riflaydi:

"Pedagogik refleksiya – bu murakkab ijtimoiy-psixologik fenomen bo'lib, sub'yektning o'z professional (pedagogik) faoliyatiga, shaxs sifatida o'ziga va o'z pedagogik tajribasiga nisbatan refleksiv, analitik pozitsiyani egallash qobiliyatida namoyon bo'ladi."

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Global ta'lim jarayonida pedagog shaxsining refleksiv madaniyati, metakognitiv salohiyati va kasbiy o'zini-o'zi rivojlantirishga tayyorligi ustuvor ilmiy yo'nalishlardan biri sifatida e'tirof etiladi. Ayniqsa maktabgacha ta'lim tizimida bu masala alohida ahamiyatga ega, chunki tarbiyachi faoliyatining mazmuni doimiy tahlil, kuzatish, baholash va pedagogik qarorlar qabul qilishni talab etadi. Ushbu jarayonning markazida metarefleksiv fikrlash – shaxsning o'z fikrlash mexanizmlarini anglash, boshqarish va takomillashtirish qobiliyati turadi.

Pedagogik oliy ta'lim tizimida metarefleksiv fikrlashni rivojlantirish bo'lajak tarbiyachilarning kasbiy identifikatsiyasi, innovatsion faoliyatga tayyorligi va shaxsiy o'sish strategiyalarini shakllantirishda muhim omil hisoblanadi. Shuning uchun mazkur yo'nalishning psixologik va pedagogik mexanizmlarini tizimli tahlil qilish dolzarb ilmiy vazifa sanaladi.

Ilmiy adabiyotlarda metarefleksiya refleksiya tushunchasining yuqori darajasi sifatida talqin qilinadi. J. Flavellning metakognitiv nazariyalari, D. Kolbning tajribaviy o'rganish modeli, A. Banduraning o'z-o'zini boshqarish konsepsiyasi metarefleksiv fikrlashning nazariy poydevorini tashkil etadi. Zamonaviy tadqiqotlar (Schön, Brookfield, Mezirow) metarefleksiyani pedagogning professional o'sishidagi asosiy mexanizmlardan biri sifatida baholaydi.

Maktabgacha ta'lim bo'yicha olib borilgan ilmiy izlanishlarda ham metarefleksiv yondashuv tarbiyachining pedagogik sezgirlik, kuzatuvchanlik, refleksiv tahlil va asosli qaror qabul qilish qobiliyatlarini rivojlantirishi ta'kidlanadi. Bu esa bo'lajak tarbiyachilarda metarefleksiv fikrlashni shakllantirish pedagogik jarayonning sifatini oshirishga xizmat qiluvchi muhim ilmiy-uslubiy yo'nalish ekanini ko'rsatadi.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu maqolada quyidagi ilmiy metodlar qo'llanildi:

- nazariy-tahliliy yondashuv – mavzu bo'yicha ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish;
- pedagogik diagnostika metodlari – anketalar, refleksiv kundaliklar, o'z-o'zini baholash testlaridan foydalanish;
- kuzatuv va faoliyat tahlili – talabalarning ta'limiy faoliyati jarayonini tizimli kuzatish;
- pedagogik eksperiment elementlari – refleksiv va metarefleksiv treninglarni joriy etish.

Pintrich (2004) o'zini-o'zi boshqarishni bo'lajak pedagogning (hozirda talabaning) fikrlari, his-tuyg'ulari va xatti-harakatlarini samarali o'qishga yo'naltirishga imkon beruvchi faol va dinamik jarayon sifatida ta'riflaydi. Tadqiqotchining yondashuviga ko'ra, talaba o'z o'quv jarayonini rejalashtiradi, uni monitoring qiladi, o'qish strategiyalarini moslashtiradi hamda natijalarni baholash orqali o'quv jarayoniga faol kirishadi. Ushbu jarayon talabaning o'z o'quv faoliyatiga nisbatan mas'uliyatini oshiradi va tashqi boshqaruvdan ichki boshqaruvga o'tishiga asos yaratadi.

Zamonaviy raqamli ta'lim muhitida self-regulated learning konsepsiyasining ahamiyati ortib bormoqda. Talabalar mustaqil ta'lim olish, raqamli chalg'ituvchilarga qarshi turish, o'quv jarayonini samarali tashkil etish va vaqtni boshqarish kabi vazifalarni bajarmoqda. Shu sababli Zimmerman va Pintrich tomonidan ilgari surilgan nazariy qarashlar hozirgi davrda talabaning hayot davomida o'rganishga tayyorligini shakllantiruvchi asosiy kompetensiyalardan biri sifatida e'tirof etiladi.

Demak, metarefleksiv yondashuv asosida bo'lajak tarbiyachilarni o'zini-o'zi kasbiy rivojlantirishga tayyorlash bugungi kunning dolzarb masalasi bo'lib, kelajak ta'limi uchun muhim nazariy va amaliy asoslarni yaratadi.

Tadqiqot natijalari quyidagilarni ko'rsatdi:

- metarefleksiya oddiy refleksiyaga nisbatan yanada yuqori darajadagi ongli boshqaruvni ta'minlaydi;
- bo'lajak tarbiyachilar o'z faoliyatiga nisbatan tanqidiy, tizimli va ongli yondashuvni shakllantira boshlaydilar;
- metarefleksiv metodika ularda kasbiy avtonomiya, tashabbuskorlik va o'zini rivojlantirishga ehtiyojni kuchaytiradi.

Bu jarayon zamonaviy global tadqiqotlar (Schön, Zimmerman, Mezirow) bilan to'liq uyg'unlikda kechadi va pedagogik ta'limda metarefleksiv yondashuvning amaliy ahamiyatini yanada mustahkamlaydi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqot davomida bo'lajak tarbiyachilarda metarefleksiv fikrlashning rivojlanish mexanizmlari, ularning refleksiv faoliyatga tayyorligi hamda pedagogik jarayonda o'z-o'zini boshqarish, tahlil qilish va baholash ko'nikmalarining shakllanish darajasi chuqur tahlil qilindi. Ilmiy adabiyotlar, diagnostik metodlar, kuzatuv va eksperi-

ment natijalari asosida talabalarning metarefleksiv salohiyatida bosqichma-bosqich rivojlanish tendensiyalari aniqlandi.

Nazariy manbalarni oʻrganish shuni koʻrsatdiki, metarefleksiya refleksiya jarayonining yuqori pogʻonasini tashkil etadi va shaxsning oʻz fikrlash mexanizmlarini anglash, boshqarish hamda takomillashtirishga yoʻnaltirilgan faol kognitiv jarayon sifatida namoyon boʻladi. Flavell, Kolb, Bandura, Schön va Mezirowning ilmiy yondashuvlari metarefleksiv fikrlashning asosiy tarkibiy komponentlarini belgilab berdi: metakognitiv monitoring, oʻz-oʻzini baholash, tajribaviy oʻrganish, refleksiv tahlil va shaxsiy pozitsiyani qayta koʻrib chiqish.

Pedagogik diagnostika natijalari boʻlajak tarbiyachilarda refleksiv faoliyatning ayrim elementlari mavjud boʻlsa-da, metarefleksiv yondashuvni ongli tarzda qoʻllash koʻnikmalari yetarli darajada shakllanmaganini koʻrsatdi. Anketalar, refleksiv kundaliklar va oʻz-oʻzini baholash testlari tahliliga koʻra, talabalarning aksariyati oʻz pedagogik faoliyatini tahlil qilishga qiziqish bildirgan boʻlsa-da, refleksiv jarayonni tizimli ravishda tashkil etish, maqsadli rejalashtirish va oʻz faoliyati natijalarini obyektiv baholashda qiyinchiliklarga duch kelmoqda.

Eksperimental treninglar jarayonida metarefleksiv topshiriqlar, mulohaza yuritish mashqlari, vaziyatli tahlillar va oʻzini-oʻzi monitoring qilish strategiyalari qoʻllandi. Ushbu jarayon boʻlajak tarbiyachilarning refleksiv fikrlash tezligi va sifatida sezilarli oʻzgarishlar boʻlishiga yordam berdi. Talabalar oʻz faoliyatini nafaqat tashqi mezonlar asosida, balki ichki nazorat, shaxsiy baholash va ongli kuzatuv orqali baholashga intila boshladilar.

Tahlillar shuni koʻrsatdiki, metarefleksiv yondashuvni qoʻllagan talabalarda quyidagi oʻzgarishlar yuz berdi:

- pedagogik vaziyatlarni tahlil qilish qobiliyati oshdi;
- oʻz faoliyati va xatti-harakatlarini ongli boshqarish kuchaydi;
- qaror qabul qilish jarayonida analitik yondashuv faollashdi;
- oʻzini-oʻzi baholash va oʻzini-oʻzi rivojlantirishga boʻlgan ichki ehtiyoj mustahkamlandi;
- kasbiy identifikatsiya va kasbiy mas'uliyat darajasi oshdi;
- refleksiv madaniyat shakllanishi tezlashdi.

Tadqiqot natijalari shuni tasdiqladiki, metarefleksiv yondashuv pedagog tayyorlash jarayonida nafaqat refleksiv koʻnikmalarni rivojlantiradi, balki talabaning kasbiy va shaxsiy oʻsish strategiyasini shakllantirishga ham kuchli ta'sir koʻrsatadi. Oʻquv jarayoniga metarefleksiv vazifalarni integratsiya qilish natijasida boʻlajak tarbiyachilar oʻz mustaqil fikrlashini tashkil etish, oʻz faoliyatini rejalashtirish va baholash, pedagogik jarayonga ijodiy yondashish kabi kompetensiyalarni egallay boshladilar.

Umuman olganda, tahlil va eksperimentlar shuni koʻrsatdiki, metarefleksiv yondashuv boʻlajak tarbiyachilarning kasbiy shakllanishida kuchli motivatsion, kognitiv va shaxsiy rivojlanish omili sifatida namoyon boʻladi. Bu yondashuv pedagogik refleksiyani chuqurlashtirib, talabaning oʻz-oʻzini boshqarish, oʻzini anglash va kasbiy faoliyatini takomillashtirish jarayonlarini izchil tashkil etish imkonini beradi.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Metarefleksiv yondashuv boʻlajak tarbiyachilarni oʻzini-oʻzi kasbiy rivojlantirishga tayyorlashning eng samarali mexanizmlaridan biri boʻlib, u kasbiy oʻzini anglashni chuqurlashtirish, shaxsiy rivojlanish strategiyasini shakllantirish, talabalarda oʻqituvchiga xos refleksiv madaniyatni vujudga keltirish va zamonaviy tarbiyachi kompetensiyalarining shakllanishiga xizmat qiladi. Mazkur metodika kasbiy oʻzini anglash, oʻz-oʻzini boshqarish, mustaqil kasbiy rivojlanish va refleksiv madaniyatning yuksalishida muhim omil sifatida namoyon boʻlib, metarefleksiya bugungi pedagogning kasbiy yadro kompetensiyasi ekanini tasdiqlaydi.

Metarefleksiv yondashuv boʻlajak tarbiyachilarning kasbiy shakllanishida asosiy metodologik yoʻnalish sifatida alohida ahamiyatga ega boʻlib, u tarbiyachining nafaqat oʻz faoliyatini tahlil qilish, balki oʻz refleksiyasini boshqarish, baholash va chuqur anglash jarayonlarini amalga oshirishini taqozo etadi. Metarefleksiya orqali tarbiyachi oʻz bilimlari, pedagogik qarashlari, amaliy tajribasi, kasbiy qadriyatlari va shaxsiy pozitsiyasini qayta koʻrib chiqib, ularni takomillashtirish yoʻllarini mustaqil belgilash imkoniyatiga ega boʻladi. Ilmiy nuqtayi nazardan, metarefleksiv yondashuv tarbiyachining kognitiv rivojlanishini faollashtiradi, kasbiy ongni metadarajaga koʻtaradi va pedagogik faoliyatni ongli rejalashtirish, baholash hamda moslashtirish kabi murakkab kasbiy koʻnikmalarni shakllantiradi, bu esa kompetensiyaviy yondashuv asosidagi zamonaviy pedagog tayyorlash modelining ajralmas qismidir.

Dolzarb jihatdan, maktabgacha ta'lim tizimida kechayotgan yangilanishlar, pedagoglar zimmasiga yuklanayotgan innovatsion vazifalar va bolalarning rivojlanishida individual yondashuvning kuchayishi boʻlajak tarbiyachidan doimiy kasbiy oʻsishni talab qiladi. Metarefleksiv yondashuv aynan shu jarayonni samarali boshqarishga, oʻz-oʻzini rivojlantirishni ongli va izchil tarzda olib borishga imkon yaratadi. Natijada, boʻlajak tarbiyachi

MAKTAB TA'LIMI SCHOOL EDUCATION ШКОЛЬНОЕ ОБРАЗОВАНИЕ

kasbiy faoliyatga puxta tayyorlangan, mas'uliyatli, tahliliy fikrlaydigan, yangilikka ochiq va oʻzini muntazam rivojlantiruvchi mutaxassis sifatida shakllanadi.

Shunday qilib, metarefleksiv yondashuv boʻlajak tarbiyachilarning oʻzini-oʻzi kasbiy rivojlantirish jarayonida metodik ahamiyatga ega boʻlish bilan birga, pedagogik kompetensiyalarni chuqurlashtirish, kasbiy samaradorlikni oshirish hamda pedagog shaxsining integral rivojlanishini ta'minlovchi ilmiy va amaliy mexanizm sifatida katta ahamiyat kasb etadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Schön, D. A. (1983). The Reflective Practitioner.
2. Eraut, M. (2000). Non-formal Learning and Tacit Knowledge.
3. Mezirow, J. (2012). Transformative Learning Theory.
4. Flavell, J. (1979). Metacognition and Cognitive Monitoring.
5. Efklides, A. (2008). Metacognition and Affect: Their Interplay.
6. Zimmerman, B. (2013). Becoming a Self-Regulated Learner: An Overview.
7. OECD. (2020). Teaching and Learning International Survey (TALIS).
8. UNESCO. (2021). Teacher Professional Development Framework.
9. Yusupova, S. M. (2020). Boʻlajak pedagoglarda metakognitiv koʻnikmalarni rivojlantirishning psixologik asoslari. Oʻzbekiston pedagogik tadqiqotlari jurnali, 3(4), 25–31.

| | |
|---|---|
| 13.00.00 | Pedagogika fanlari |
| 13.00.01 | Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta’limotlar tarixi |
| 13.00.02 | Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo‘yicha) |
| 13.00.03 | Maxsus pedagogika |
| 13.00.04 | Jismoniy tarbiya va sport mashg‘ulotlari nazariyasi va metodikasi |
| 13.00.05 | Kasb-hunar ta’limi nazariyasi va metodikasi |
| 13.00.06 | Elektron ta’lim nazariyasi va metodikasi (ta’lim sohalari va bosqichlari bo‘yicha) |
| 13.00.07 | Ta’limda menejment |
| 13.00.08 | Maktabgacha ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi |
| 13.00.09 | Ijtimoiy pedagogika |
| 07.00.00 | Tarix fanlari |
| 19.00.00 | Psixologiya fanlari |
| 01.00.00 | Fizika-matematika fanlari |
| 02.00.00 | Kimyo fanlari |
| 03.00.00 | Biologiya fanlari |
| 09.00.00 | Falsafa fanlari |
| 10.00.00 | Filologiya fanlari |
| 11.00.00 | Geografiya fanlari |

# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

**Mas'ul muharrir:** Ramzidin Ashurov

**Ingliz tili muharriri:** Murod Xoliyorov

**Musahhih:** Alibek Zokirov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

**2025. №12**



© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.



"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C–5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

**Litsenziya raqami: № 136361**.

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Yunusobod tumani 19-mavze, 17-uy.